

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil).– 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

JADIDLAR SAYOHATNOMALARIDA MAVZULAR KO'LAMI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Kimsanboyeva Shohsanam

Farg'ona davlat universiteti, magistranti

Annotatsiya. Maqolada jadidlar sayohatnomalarida yoritilgan asosiy mavzular, ularning ma'rifiy, ijtimoiy va publitsistik ahamiyati tahlil qilinadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqa jadidlarning sayohat asarlari misolida sayohatnomalarning milliy uyg'onish, islohot g'oyalarini targ'ib etish hamda jamiyat tafakkurini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, sayohatnoma, jadid matbuoti, ma'rifatparvarlik, publitsistika, milliy uyg'onish, islohot.

THE SCOPE OF THEMES IN THE TRAVELS OF THE NEW AGERS AND THEIR EFFICIENCY

Kimsanboyeva Shohsanam

Fergana State University, Master's student

Annotation. This article examines the main themes of Jadid travel writings and their educational, social, and journalistic significance. Based on the works of Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Avloni, and other Jadid intellectuals, it highlights the role of travel narratives in promoting reform ideas and shaping national consciousness.

Keywords: Jadidism, travel writing, Jadid press, enlightenment, journalism, national awakening, reforms.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i14/n04>

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston zaminida boshlangan jadidchilik harakati o'zining ijtimoiy, madaniy va siyosiy jihatlari bilan o'zbek xalqining tafakkurini uyg'otgan, milliy o'zlikni anglash jarayonida muhim rol o'ynagan tarixiy hodisadir. Ushbu harakat doirasida vujudga kelgan jadid matbuoti va sayohatnomalar o'sha davrning ijtimoiy hayoti, ma'rifiy harakati va zamonaviy tafakkurini aks ettirgan asosiy manbalardan hisoblanadi. Jadid matbuoti xalqni savodli qilish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish, islohotga chorlashga xizmat qilgan bo'lsa, sayohatnomalar orqali bu fikrlar adabiy-badiiy shaklda bayon etilgan.

Jadid matbuoti XIX asr oxirlarida shakllanib, XX asr boshlarida yuksak darajaga chiqdi. Bu matbuot vositasida jadid ziyolilari millatni uyg'otish, islohga chorlash va zamonaviy bilimlarni yoyishni maqsad qilgan edilar. Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan "Oyina" gazetasi, Abdulla Avloniy tomonidan chiqarilgan "Taraqqiy", "Shuhrat", "Osiyo" kabi jurnallar – jadid matbuotining yorqin namunalari.

Jadid matbuotining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Tanqidiy va analitik yondashuv;

Ma'rifiy maqolalar orqali ommani ogoh qilish;

Ayollar masalasi, bolalar tarbiyasi, islom tafakkuri, ilm-fan va adabiyot mavzularini yoritish;

Yangi turdagi jurnalistika uslublarining joriy qilinishi.

Behbudiy, Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Majid Qodiriy kabi jadidlar o'z asarlarida ilm-fan, ma'rifat, maktab va matbuotning rolini yuqori baholab, o'quvchini faollikka da'vat etganlar.

Sayohatnomalar – adabiy va ijtimoiy manba sifatida. Jadidlar yozgan sayohatnomalar shunchaki safar tavsiflari emas, balki ularni yozgan shaxslarning dunyoqarashi, zamon ruhi va ijtimoiy-fikr tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Hind sayohati", "Haj safari" kabi asarlari orqali muallif musulmon dunyosining holati, musulmonlar o'rtasidagi tafovutlar va zamonaviy rivojlanish haqida mulohazalar bildiradi. Sayohatnomalar orqali jadidlar:

Yangi o'lkalarni ko'zdan kechiradi va ularni o'z yurti bilan taqqoslaydi;

Rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini tahlil qiladi;

O'z xalqi uchun ibrat bo'ladigan g'oyalarni ilgari suradi;

Ko'p hollarda bu asarlar tanqidiy tafakkurni uyg'otadi.

Jadid sayohatchilari uchun yo'l – o'zgarish, bilish va taqqoslash vositasi edi. Ular o'z yurti rivoji uchun bu safarlardan ilhom olganlar. Jadid matbuoti va sayohatnomalar bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim janr hisoblanadi. Matbuot orqali jadidlar keng ommaga murojaat qilgan bo'lsa, sayohatnomalar orqali o'z fikrlarini badiiy va shaxsiy shaklda ifodalaganlar. Ko'plab maqolalar aynan sayohat taassurotlaridan kelib chiqqan. Masalan, Behbudiyning Hindistonga qilgan safari natijasida yozilgan maqolalar keyinchalik keng auditoriyani jamiyatdagi kamchiliklar haqida o'ylantirdi. Shu bilan birga, ularning matbuotda bosilgan safar tafsilotlari o'quvchini yangicha dunyoqarashga chorlagan. Jadid matbuoti va sayohatnomalari Turkiston jadidlarining eng muhim merosidir. Ular orqali biz jadidlar qanday fikrlaganini, qaysi muammolar ularni tashvishga solganini, qanday yechimlar taklif etganini anglaymiz. Ularning matbuotdagi faoliyati – bu ma'rifatparvarlik harakatining yuragi bo'lgan bo'lsa, sayohatnomalari – bu yurakning ovozi edi. Bugungi kunda ham bu meros milliy tafakkurimizni boyitishda katta ahamiyatga ega.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ijod etgan Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi otashnafas, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surib, xalqni jaholat botqog'idan xalos etish uchun yonib kuygan shoirlarimiz ham o'z ijodlari davomida o'sha davr ruhini aks ettiruvchi sayohatnoma asarlar qoldirganlar.

O'z davrining she'riyatida e'tiborli o'rin tutgan shoir Muqimiy sog'lig'i yomonlashgani tufayli tabiblar maslahati bilan havo almashtirish niyatida sayohatga chiqqan. Isfara, Konibodom, Toshkentning bahavo joylariga sayohat qilgan. Aynan ana shu sayohati davomida o'zbek she'riyati tarixida mashhur bo'lgan "Sayohatnoma" asarini yozib qoldirgan. [1; B.79.].

Shoir sayohati davomida boshidan kechirgan quvonchlaru, davr jafo-yu azoblarini ham shu tarzda qalamga olib o'tadi. "Sayohatnoma" turkumiga kiruvchi she'rlarini uzoq Moskva va Peterburgda ham yozishni istagan.

Muqimiy hayoti davomida qilgan sayohatlarini tasvirlab, uchta sayohatnoma yozdi: "Qo'qondan Shohimardonga", "Qo'qondan Farg'onaga", "Qo'qondan Isfara". 1953 yilda yana bir parcha topilib, "Isfara sayohatidan" deb nomlandi. Ularning barchasi sayohat taassurotlari haqida yozilgan bo'lib, yagona g'oyaviy mazmunga ega.

Muqimiyning "Sayohatnoma"larida amaldorlarning kirdikorlarini aks ettiruvchi parchalar ko'p uchraydi. Bu esa "Sayohatnoma"lar tanqidiy realizm adabiyotining yorqin namunasi ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, asarlarda Farg'ona vodiysining go'zal tabiat manzaralari yuksak ruhda tasvirlangan. Masalan:

**O'ynab keladur suvlarin,
Shirinki zardolulari,
Qandu asal bekor ekan.**

Bunday misralar Muqimiyning o'z vataniga bo'lgan yuksak muhabbat va ehtirosini yaqqol ko'rsatadi. [2; B.56.].

Muqimiy zamondoshi va safdoshlaridan biri Furqatning 1891 yilda yozgan "Sarguzashtnoma"si shoirning tarjimai holi hisoblanadi. Bu muhim asarning "Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti, o'zi yozg'oni" deb atalishi ham shuni ko'rsatadi. Mazkur asar Furqat hayotini o'rganishdagi asosiy manbalardan biridir.

Furqat tabiatan tinib-tinchimas, yangilikka o'ch odam bo'lgan. U sayohat qilishni orzu qilib, 1889 yil bahorida safarga otlangan. Asli qo'qonlik bo'lgan Furqat, Xo'qondan chiqib, Xo'jand orqali Toshkentga keladi.

Hukmron doiralar o'rtasidagi ziddiyatlar sabab Toshkentdan chiqib, Samarqandga yo'l oladi. U yerdan Ashxobod, Krasnovodsk, Kaspiy dengizi orqali Bokuga o'tadi. Furqatning O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohati ana shunday boshlanadi. Bokudan Istanbulga, so'ngra Arabiston, Misr, Yunoniston, Bolgariya va Hindiston mamlakatlarida bo'ladi. U Hindiston safari haqida shunday deydi:

Yer yuzida ko'rmadim Bombay kabi shahri azim, Garchi kezdin Misr ila Istanbulu Bulgorlar.

O'zbek adabiyoti tarixida sayohat jurnalistikasi bilan bevosita bog'liq yuzlab asarlarga duch kelamiz. Tarixdan ma'lumki, qator allomalarimiz ilm-fan rivojida, o'z mutaxassisliklari yo'lida, hayot taqdirleri yo'llarida yurtidan yurt kezmanlar, bir necha xorijiy mamlakatlarda bo'lganlar. Yuqorida keltirilgan misollar sayohat jurnalistikasi sohasining tarixiy bosqichlarini ko'rsatibgina qolmay, balki kuchli bilim va salohiyatga ega bo'lgan sayohatchi jurnalistlarning avlodlar uchun qoldirgan bebaho boyliklarini namoyon etadi. Ular yaratgan asarlar o'z davri kishilarini ma'rifatga yetaklagan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy uyg'onish jarayonida jadidchilik harakati muhim rol o'ynadi. Bu davrda matbuot erkin fikr maydoniga aylana boshladi. Jadid matbuoti yangi uslubda, ma'rifiy mazmunda chiqib, jamiyatda islohotlar o'tkazish g'oyasini ilgari surdi. Ushbu matbuot organlarida sayohat janrida yozilgan asarlar keng o'rin oldi. Sayohatnomalar orqali o'quvchilar xorijiy mamlakatlar hayoti, madaniyati, ilm-fani haqida bevosita tasavvurga ega bo'la boshladilar.

Jadid matbuotidagi sayohat janrining asosiy xususiyati – uni ta'limiy, ma'rifiy vosita sifatida foydalanishda ko'rinadi. Jadidlar sayohatlarni shunchaki shaxsiy taassurot emas, balki islohotlar uchun dalil sifatida, taqqoslash mezonini sifatida keltirdilar. Bu janrda eng yorqin namunani Mahmudxo'ja Behbudiy yaratdi. Uning 1913-yilda Samarqandda bosilgan "Sayohatnoma" asari o'zbek publitsistikasida ilk siyosiy-ijtimoiy sayohatnoma sifatida katta tarixiy ahamiyatga ega. Behbudiy 1912-yilda Arabiston va Misr orqali haj safari qilgan, shuningdek Istanbul va Bombayda bo'lgan. Ushbu safarlari davomida u turli mamlakatlar taraqqiyotini, musulmon ommaning ijtimoiy holatini kuzatadi va O'zbekiston bilan qiyoslab, muhim xulosalarni beradi.

“Sayohatnoma”dagi asosiy tezislardan biri – ilm va madaniyat orqali musulmon xalqlarini uyg'otish zarurligidir. Misrda Al-Azhar universiteti faoliyati, Istanbulda bosma nashrlar, turk maktablaridagi islohotlar Behbudiyga kuchli taassurot qoldirgan. U ularni maqola va risolalar orqali jadid matbuotida keng yoritadi.

Behbudiydan tashqari boshqa jadidlar – Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo'jayev kabi ziyolilar ham sayohatlari haqida matbuotda maqolalar chop etdilar. Ayniqsa “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Hurriyat”, “Oina”, “Shuhrat” kabi gazetalar va jurnallar sayohatnomaviy maqolalarning asosiy platformasiga aylangan edi. Masalan, 1910-yilda “Taraqqiy” gazetasida bosilgan bir maqolada Buxorodan kelgan muallimning Turkiston temiryo'li orqali Rossiyaga qilgan safar taassurotlari beriladi. U Rossiyaning yirik shaharlaridagi fan-texnika taraqqiyoti, kutubxonalar, ayollar o'qiydigan maktablar borligi haqida yozadi. Bu maqola orqali muallif o'z yurti ahvolining orqada qolganligini ta'kidlab, islohotlar zarurligini ko'rsatadi.

Jadid matbuotidagi sayohatnomalar faqatgina geografik yoki madaniy tafsilotlarni emas, balki jadidlarning modernizatsiya g'oyalarini yetkazish vositasi bo'lgan. Jadidlar sayohatlar orqali o'zbek xalqini uyg'otish, unda intilish, islohotlar, zamonaviy ta'limga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga xizmat qilganlar.

Sayohat asarlari orqali jadidlar mustamlaka siyosatining salbiy jihatlarini ham yoritganlar. Masalan, Behbudiy Istanbulda bosma nashrlarning erkinligidan hayratlanib, o'z yurtida matbuot erkinligining yo'qligidan shikoyat qiladi. Bu holat orqali u siyosiy erkinlik va taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

“Oyna” jurnalining 1913-yilgi sonlarida Istanbul, Tehron, Qohira, Toshkent, Buxoro kabi shaharlar haqidagi maqolalarda madaniyatlar kesishuvi, islohotlar jarayoni haqida ma'lumotlar beriladi. Mualliflar o'z maqolalarida xorijdagi bosmaxona, maktab, teatr, kutubxona, savdo markazlari haqida yozar, ularni Turkiston shaharlaridagi holat bilan solishtirib, tanqidiy tahlil berar edilar. Jumladan, jurnalning 1913-yil 7-sonida chop etilgan maqolada Tehron shahrida ayollar uchun ochilgan maktab haqida gap boradi. Muallif bu holatni ilgari surib, Turkistonda ayollar ta'limining yomon holatini tanqid qiladi. Bu orqali jadid matbuoti o'z o'quvchisini tafakkurga chorlaydi, ijtimoiy faollikni oshiradi.

Sayohat janri orqali jadidlar nafaqat dunyoni tanitdilar, balki milliy o'zlikni anglashga ham xizmat qildilar. Ular xorijiy tajribani tanqidiy qabul qilgan holda, o'z milliy qadriyatlari bilan uyg'un holda islohotlar o'tkazish tarafdori bo'ldilar. Sayohatlar chog'ida ularning ko'zlari ochildi, dunyoqarashlari kengaydi, bu esa matbuot orqali jamiyatga tarqaldi.

Shunday qilib, jadidlar uchun sayohat – bilish, anglash, solishtirish, tanqid va taklif vositasi bo'ldi. Ular shaxsiy safarlarini ijtimoiy ahamiyatga ega ilmiy-madaniy hujjatga aylantira oldilar.

Sayohat janri jadid matbuotida to'satdan paydo bo'lmadi. Uning shakllanishida Sharq adabiyotidagi tarixiy-geografik asarlar, xususan, Ibn Battuta, Nasir Xisrav va Mirzo Bobur kabi shaxslarning sayohatnomalari muhim madaniy zamin bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, Boburning Hindistonga qilgan safarlari haqidagi qaydnomalari o'zbek o'quvchisiga begona emas edi. Jadidlar esa bu janrni zamonaviy shaklga olib chiqib, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan boyitdilar. Behbudiy “Sayohatnoma”sida ko'proq tahlil, taqqoslash, xulosa chiqarish uslubidan foydalangan bo'lsa, Avloniy o'z maqolalarida hissiy obrazlar bilan boyitilgan sayohat tasvirlarini yaratadi. Munavvarqori esa ilmiy-tarixiy yondashuv orqali sayohatni ijtimoiy

jarayon sifatida talqin qiladi. Bu jihatlar jadid matbuotida turli yondashuvdagi sayohat asarlarini yuzaga keltirdi.

Jadidlar asarlari chuqur diniy asosga ega bo'lsa-da, ular islohotni modernizm asosida tushungan ziyolilar edilar. Masalan, Behbudiy haj safaridan so'ng arab mamlakatlaridagi diniy muhitni, madrasalardagi ta'lim darajasini tanqidiy baholaydi. U Misrda ko'plab musulmonlar fan va texnika bilan shug'ullanayotganini ko'rib, bu holatni zamonaviy dunyoda din va taraqqiyot bir-biriga zid emasligini ko'rsatish uchun dalil sifatida keltiradi. [3; B.76.].

Shuningdek, sayohatnomalar orqali jadidlar islom sivilizatsiyasining turli shakllarini ko'zdan kechirdilar. Ular diniy qarashlar va modernizmni birlashtirishga urindilar. Bu fikrlar, ayniqsa, "Hurriyat" va "Oyna" matbuotida aniq ko'zga tashlanadi. Mazkur matbuot organlari o'z sahifalarida musulmon mamlakatlaridagi ijtimoiy o'zgarishlar, maktab islohotlari, ayollar ta'limi masalalarini keng muhokama qilgan.

Jadidlarning sayohatnomalari matbuot orqali keng qatlamga tarqalgan. Bu esa jadidlarning xalq bilan muloqotini kengaytirgan, ularning zamonaviy dunyo haqidagi tasavvurlarini shakllantirgan. Oddiy o'quvchi uchun Istanbul yoki Qohira hayoti tasavvur qilib bo'lmas holatda edi, ammo jadidlar bunday shaharlardagi voqealikni o'zbek tilida, xalqona uslubda tasvirlab bera oldilar.

Avloniy o'z maqolalarida o'quvchilarni bevosita muhokamaga chorlaydi. Masalan, u yozadi: "Men ko'rgan voqealar sizga ham ibrat bo'lsin. Agar siz ham ko'rsangiz edi, balki men bilan birga yig'lardingiz yoki faxr qilardingiz." Bu turdagi uslub o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol fikrlovchiga aylantiradi.

Sayohatlar orqali berilgan bu taassurotlar milliy o'zlik, islohotlar, erkin fikr, ilmga chanqoqlik singari g'oyalarni shakllantirishga xizmat qildi. Shu ma'noda, sayohatnomalar jadidchilik g'oyalarining ommalashuvi va ijtimoiy ongda aks etishida beqiyos rol o'ynagan.

Jadid sayohatnomalari faqat adabiy yoki shaxsiy xotiralar emas, balki o'ziga xos pedagogik vosita bo'lgan. Jadidlar har bir safar tafsilotidan ta'limiy maqsadda foydalanishga intildilar. Masalan, Behbudiy Misrdagi kutubxonalarning ochiqligi, jamoat transporti, ayollar maktablari haqida tafsilotlarni yoritganida, bu ma'lumotlarni o'z yurti aholisi ongida "nimalar qilish kerak?" degan savolni uyg'otish uchun taqdim etadi.

Avloniy esa "Maktab gulistoni" va boshqa darsliklarida ham sayohat taassurotlariga tayanib, boshqa xalqlarning ilg'or tajribalarini o'quvchilarga tushunarli qilib berishga harakat qilgan. Demak, sayohatnomalar orqaligina emas, balki darsliklar, maktab tizimi orqali ham bu taassurotlar ommalashtirildi.

Jurnalistik nuqtayi nazardan esa, sayohatnomalar jadid matbuotining tiriklik belgisi edi. Oddiy yangiliklardan farqli ravishda, ular jurnalistikaning eng yuksak usullaridan biri bo'lgan kuzatuv, solishtirish, tahlilni birlashtirib, o'quvchiga "fikr beradigan" janrni yaratgan edilar. Jadid matbuotida bu janrdagi materiallar ko'pincha sarlavhasiz yoki "bir musofirning maktubi", "qisqacha taassurot" kabi soddalashtirilgan nomlar bilan berilsa-da, ular zamonaviy publitsistik maqola, blog yoki reportajlarga juda yaqin edi.

1920-yillardan boshlab Sovet hokimiyati Turkistonni to'liq nazorat ostiga olgach, jadidlar ta'qibga uchray boshladilar. Bu bilan birga, jadid sayohatnomasining erkin, ochiq fikrli uslubi yo'qoldi. Jadid sayohatnomalarining taqiqlanishi va mualliflarining ta'qib qilinishi, bu janrda ijod qilganlar orasida uzoq yillar davomida bo'shliq keltirib chiqardi. Behbudiy qatl etildi, Avloniy surgun qilindi. Natijada, bu janr o'zining tabiiy rivoj yo'lidan to'xtab qoldi.

Faqatgina mustaqillikdan so'ng, bu meros qayta tiklana boshladi. Bugungi kunda Behbudiy, Avloniy va boshqa jadidlarning sayohatga doir asarlari qayta nashr qilinib, o'rganilmoqda. Ular o'zbek publitsistikasi va jurnalistikasida mustahkam asos bo'lib qolmoqda.

Jadid matbuoti va sayohatnomalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki kuchli ma'rifiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Sayohatnomalar jadidlar uchun dunyo tajribasini o'rganish, uni xalqiga yetkazish, islohot g'oyalarini asoslash uchun muhim vosita bo'lgan. Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy, Avloniy, Munavvarqori va boshqa jadidlar o'z maqolalari va asarlarida xorijiy hayotni ma'rifiy va siyosiy jihatdan talqin qilib, o'z yurti taraqqiyotiga da'vat qilganlar. Jadid matbuotining bu boradagi xizmatlari, ayniqsa, bugungi kunda global axborot oqimi sharoitida tarixiy saboq sifatida o'rganishga loyiqdir. Sayohat asarlari jadidlarning tafakkurini shakllantirish, o'z zamonasi muammolariga yechim izlashdagi faoliyati bilan uyg'unlashib ketgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Avloniy, Abdulla. "Tanlangan asarlar" (2 jildlik). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
2. Behbudiy, Mahmudxo'ja. Sayohat xotiralari (Sayohatnoma). – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
3. Muqimiy. Asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil). – 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.